

USTRUSHONA HUDUDINING TABIIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI: TARIXIY VA ARXEOLOGIK TAHLIL

Baratov Shoislom Abdug'ani o'g'li

Sirdaryo viloyati Guliston shahar

Ideal Study xususiy maktabi direktori

Tel: +998 94 444 88 22

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21850174>

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi Ustrushona o'lkasining tabiiy-geografik sharoiti hamda uning aholi xo'jaligi va tarixiy taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilingan. Hududning tabiiy-geografik xususiyatlari va resurslarining dehqonchilik, chorvachilik hamda konchilik rivojlanishidagi o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ustrushona, tabiiy-geografik sharoit, tarixiy geografiya, tog'-tog'oldi, Mirzacho'l, dehqonchilik, chorvachilik, konchilik, tabiiy resurslar*

Аннотация: *В тезисе проанализированы природно-географические условия Уструшаны и их влияние на хозяйственную деятельность населения и историческое развитие региона. Освещена роль природно-географических особенностей и ресурсов территории в развитии земледелия, животноводства и горнодобывающей деятельности.*

Ключевые слова: *Уструшана, природно-географические условия, историческая география, горные и предгорные территории, Мирзачуль, земледелие, животноводство, горнодобывающая деятельность, природные ресурсы*

Abstract: *This thesis analyzes the natural and geographical conditions of Ustrushana and their influence on the economic activities of the population and the historical development of the region. It highlights the role of the territory's natural and geographical features and resources in the development of agriculture, livestock farming, and mining.*

Keywords: *Ustrushana, natural and geographical conditions, historical geography, mountainous and foothill areas, Mirzachul, agriculture, livestock farming, mining, natural resources*

Ustrushona qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-geografik hududlaridan biri hisoblanib, uning tabiiy-geografik sharoiti hududning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Tog'-tog'oldi, adir va dasht-cho'l mintaqalaridan iborat tabiiy muhit dehqonchilik, chorvachilik, konchilik hamda boshqa xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratgan. Shu bois Ustrushonaning tabiiy-geografik xususiyatlarini o'rganish hudud tarixini ilmiy jihatdan yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Ustrushonaning tabiiy-geografik sharoiti hamda uning xo'jalik va tarixiy taraqqiyotga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi.

Ushbu madaniy o'lka chegaralari bugunda O'zbekistonning Jizzax va Sirdaryo, Tojikistonning Sug'd (avvalgi Leninobod) viloyatlari, Qirg'izistonning Laylak tumani hududlarini o'z ichiga olgan va janubdan Turkiston tizmalari bilan chegaralangan hududlardan iborat.

Qadimgi Ustrushona antropogen landshaftining shakllanishiga ko'ra uchta tarixiy-geografik zonaga: tog'-tog'oldi, adirlilik va dasht-cho'l tekisliklarga bo'lish mumkin. Ularning xususiyatlari landshaft tabiati va tabiiy-iqlim sharoitlari bilan birbirlaridan ko'p jihatdan farq qiladi. Shimoli-sharqdan zinapoyasimon tekisliklar tog'lik tomon ko'tarilib boradi. Bu xudud O'zbekistonning baland va o'rtacha balandlikdagi tog'lar, tog' etaklaridagi tekislik vohalari, sho'rxok va cho'l landshaftliklardan iborat mikromintaqani tashkil qiladi [1].

Tog'-tog'oldi mintaqasi qadimiy Ustrushonaning janubiy mintaqalarini qamrab olib, balandligi dengiz sathidan 1000-2800 metrgacha yetadigan, tog' yonbag'irlari, daralar va kanonlardan iborat. Qish faslida qalin qorlar bilan qoplanuvchi ushbu qism yashash uchun juda murakkab sharoitni vujudga keltirgan. Biroq yoz oylaridagi yog'ingarchilik miqdorining mo'lligi soylar havzalarida keng va oson ishlov beriladigan terrasa – maydonlar, shuningdek qalin o'tloqzorlarni hosil

qilgan. Terrassalar qanchalik past bo'lsa, iqlim sharoiti shunchalik qulay bo'lib boradi.

Tosh-qoyali va konglomerat jinslardan tashkil topgan tog'li qismi tabiiy suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 400 mm dan ortiq [2]. Iqlimi keskin kontinental, maksimal harorat yozda 33°, qishda - 35-38°. Mintaqada Zarafshon archasi va qora archa, o'rta qismida (2100—2800 m) sovur archa, yuqori qismida (2100—3200 m) o'rik archa o'sadi. Bulardan eng ko'p uchraydigani sovur archadir. U qora archa va o'rik archa orasida ham o'saveradi. Archadan tashqari Tyanshan chetani, Turkiston qayini; butalardan zirk, na'matak, uchqat, irg'ay, tobulg'i o'sadi. Hayvonot dunyosi ham juda boy bo'lib, Turkiston silovsini, oq tirnoqli ayiq, arxar, bars, shuningdek, bo'ri, bo'rsiq, tulki, jayra, to'ng'iz va boshqalar uchraydi.

Ushbu hududlar qadimdan bog'dorchilik va lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanishga, shuningdek, termachilik va ovchilik xo'jaligining shakllanishiga imkon yaratgan. Shuningdek, o'suvchan tog'larning ayrim qismlarida metall qazib olish qulay bo'lib, konchilik bilan ham shug'ullanishga imkon yaratadi[3]. Masalan, Pishag'orsoyning o'rta oqimida joylashgan Pishag'or vodiysining unumdor havzasini qadimda ixcham, zich joylashgan Shagar rustoqi egallagan. Bundan tashqari Zominsoyning yuqori oqimidagi keng Supa (Supa) terrasasini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Garchi ikkinchisining maydoni Pishag'orsoydan sezilarli darajada katta bo'lsa-da, vodiy aholi tomonidan kamroq o'zlashtirilgan[4].

Adir mintaqasi tog' toshlardan oqib keluvchi sel cho'kindilaridan hosil bo'lgan va tosh yostig'ida har xil qalinlikdagi (ba'zan 100 m gacha) yotadigan sariq-kulrang lyosdan iborat. Lyoss g'ovaksimon, lalmi dehqonchilik uchun qulay.

Yer osti suvlari 10 metrdan to 50 metrgacha chuqurlikda. Umuman olganda, suv ta'minoti tabiiy yog'inlar va soylarning suvlaridan iborat. Soylarda umumiy yillik suv sarfi odatda 50% gacha yilning eng faol oqim davri may-iyun oylariga to'g'ri keladi. Xususan, Zominsoy, Sangzor, Ko'lsoy, Achchisoy, Pishag'arsoy, Uvolsoy, Turkmansoy, Jaloyirsoy, Xo'jamushkentsoy kabi soylarning quyi

oqimlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Biroq ayrim yirik soylar mintaqada butun dehqonchilik mavsumi (bahor-kuz) davomida nisbatan bir tekis oqib turadi. Jumladan, o'rganilayotgan hududning eng yirik soylaridan biri bo'lgan Zominsoy apreldan sentyabr oylarigacha to'la bo'lib oqadi.

Dasht-cho'l tekisliklar mintaqasi. Mintaqaning dasht-cho'l tekisliklari geografik joylashuviga ko'ra, Sirdaryo va Nurota tizmasi o'rtasidagi tekisliklardan iborat. Mirzacho'l dasht mintaqasi janubdan shimoliy-g'arbga tomon pasayib boruvchi qiyalik to'liqinli tekislikdir. Oqsuv daryosining yuqori qismi (Xo'jand shahri atroflari)dan boshlangan mintaqa sharqdan Sirdaryoning keng vodiysi, janubi va g'arbidan Turkiston va Nurota tizmalarining etaklari, shimoli-g'arbida Qizilqum qumlar bilan o'ralgan.

Mirzacho'lning markaziy qismida bir qancha havzalar - Sardoba, Jetisoy, Karoy va Arnasoylar tilga olinib, ularda yer osti suvlari to'planadi va tabiiy drenajga ega emas[5]. Relefning balandligi shimolda dengiz sathidan 230 metrdan balandlikda, markaziy qismida 400 - 460 m, janubi va janubi-g'arbida 600 - 650 metrgacha borib yetadi. Tuprog'i mezo-kaynozoy cho'kindilaridan tashkil topgan bo'lib, yuzasi lyosssimon jinslar bilan qoplangan. Sirdaryoning nisbatan yosh terrasalari, janubiy, tog'li zonasi Turkiston tizmasidan keladigan konglomerat va less tizma-adirlar shaklidagi hududlar va uning shoxlaridan iborat. Mirzacho'l tuproqlari cho'l bo'z tuproqlari qatoriga kiradi. Ular tuproqli va qumli bo'lib, ko'p miqdorda ozuqa moddalarini o'z ichiga oladi va sug'orma dehqonchilikda juda unumdor tuproq hisoblanadi. Bu qadimdan zamindor aholi tomonidan qadrlangan. Bu haqda qadimda insonlar tomonidan qazilgan ko'plab kanallar va ariqlar qoldiqlari guvohlik beradi. Ular orasida eng mashhurlari Mirzarabod, Karoy, O'g'uz, Urumboy, Eski Tuyatortar kanallaridir. Mirzacho'l dasht mintaqasi iqlimi keskin kontinental, quruq, biroz bulutli. Yoz oylarida juda ko'p garmsel keladi. Bu oqim ekin-tikinlar uchun zararli bo'lib, tuproqni tezda quritadi. Mintaqada yiliga o'rtacha taxminan 250-266 mm yog'ingarchilik tushadi, uning asosiy miqdori qish

va bahor fasllariga to'g'ri keladi. Shu bois, dashtning keng maydonlari bahorda (aprel, may) jonlanadi.

O'simliklardan lolaqizg'aldoq, boychechak, chuchmoma, qoqi yalpiz, ismaloq, yantoq, sho'ra, shuvoq, qo'ng'irbosh, qo'ziquloq, tuyatovon, quyonsuyak. juzg'un, qovul, oqquray, qiltiq, karrak, rang, illoq, betaga, qiyoy, qamish, yulg'un, oqbosh, qushqo'nmas, na'matak, mingboshi, chitir, g'umay, pechak, saksovul, har xil butalar, jiyda, do'lana, tol, terak, qayrag'och, oq akatsiya, zarang, shumtol va boshqalar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan: jayron, tulki, bo'ri, chiyabo'ri, qobon, jayran, nutriya (suv sug'uri-akklimatizatsiya qilingan)[6], ondatra (mushk kalamush- akklimitizatsiya qilingan), ko'rsichqon, suvkalamush, tipratikan, yumronqoziq, kaltakesak, ilon, toshbaqa, falanga, chayon, qoraqurt; qushlardan xo'jasavdogar, moyqut, bulduruq va b. bor[7].

Bunday boy flora va fauna qadim zamonlardan bu yerga O'rta Osiyoning turli mintaqalaridan chorvadorlarning katta guruhlarini jalb qilgan. Bu haqda bugungi kunda ushbu zaminda juda keng tarqalgan mo'zorgo'rg'onlar dalolat beradi.

Umuman hududning tabiiy-geografik tuzilishidan ko'rinib turibdiki, Ustrushona hududining uch xil tabiiy geografik sharoiti qadimdan bir necha xildagi xo'jalik yuritish imkonini bergan.

Xulosa qilib aytganda, Ustrushonaning tabiiy-geografik sharoiti hududning tarixiy taraqqiyoti va xo'jalik tizimining shakllanishida muhim omil bo'lgan. Tog'-tog'oldi, adir va dasht-cho'l mintaqalarining o'ziga xos tabiiy resurslari dehqonchilik, chorvachilik, konchilik hamda boshqa xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan. Shu bilan birga, tabiiy-geografik muhit aholi manzilgohlari joylashuvi, xo'jalik faoliyati va mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Demak, Ustrushonaning tabiiy-geografik xususiyatlarini o'rganish hududning qadimgi va o'rta asrlar tarixini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. –Ташкент: Узбекистан, 1978. – С. 6-8.
2. Агроклиматические ресурсы Джизакской и Самаркандской областей Узбекской ССР. – Ташкент: 1977. –С. 14.
3. Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. (МКУ. Вып. 4), - Душанбе: Дониш. 1980; Древний Заамин (История, археология, нумизматика, этнография). / Отв. ред. Н. Ш. Умаров. –Т.: Фан, 1994. – С. 2.
4. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. -С. 6-8.
5. Игамбердыев Р.С. Голодная степь: ее прошлое и настоящее.- Т.:Наука,1965. –С.12
6. Игамбердыев Р.С. Голодная степь: ее прошлое и настоящее.- Т.:Наука,1965. –С.12.
7. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. –С. 6-8.